



**OSIYO  
TEKNOLOGIYALAR  
UNIVERSITETI**



**IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT**

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



**№6-MAXSUS SON**



**74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982**





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 162 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Khusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'zbekiston respublikasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri.....	10
<b>Raxmonov Lochin To'xtamishovich</b>	
Orol dengizi mintaqasida cho'llanishni bartaraf etishning barqaror usuli: tabiiy ofat turizmi platformasidan foydalanish.....	14
<b>Axunjonov Umidjon Mahamadumarovich</b>	
Specific tasks of effective information and communication technologies management in the digital economy.....	23
<b>Saatova Lolakhon Ergashevna</b>	
Chuqur o'rganishga asoslangan moliyaviy firibgarlikni aniqlash uchun yondashuvlar.....	27
<b>Normamatov Xayriddin Mengniyevich</b>	
AI va big data yordamida sanoat korxonalarida moliyaviy monitoring va budget nazoratini avtomatlashtirish.....	37
<b>To'qliyev Abdirauf Bahodir o'g'li</b>	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning ro'li.....	44
<b>Ismatov Zokir Xuvaytovich</b>	
Tijorat banklari moliyaviy boshqarish tizimi samaradorligini takomillashtirish strategiyasi.....	48
<b>Kadirov Lutfullo Xalimovich, Elboboyev Hamid Fozil O'g'li</b>	
Ta'lim jarayonini 3d texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish bosqichlari.....	52
<b>Xushbaqov Eshpo'lat Alisherovich, Axmedova Asal Azimjon qizi</b>	
Biosignallarni qayta ishlashda su'niy intellektga asoslangan bashoratlash.....	57
<b>Qarshiyeva Jamila Yashnar qizi</b>	
Shamol dvigatellaridan qurg'oqchil hududlarda foydalanish.....	60
<b>Samadiy Khusrov Abdusalimzoda</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediali ta'lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlari.....	65
<b>Sodiqova Umida Uchqun qizi</b>	
Совершенство и внедрение в практику методики когнитивного моделирования, направленной на решение педагогических задач учащихся с помощью современных информационных технологий (ИИ, VR, тренажеры, интеллектуальные системы).....	72
<b>Турсунова Севара Юсуф кизи</b>	
Yashil iqtisodiyot va uni barqaror rivojlantirish.....	78
<b>Anvarjon Barnoyev</b>	
Modern Mechanisms for Improving the Quality of Financial Control.....	81
<b>Umirzoq Rakhmonov</b>	
Zamonaviy o'qitish strategiyasi va metodlari: dasturlashni o'rganish uchun muhitlar.....	83
<b>Mamatova Shirin Faxriyevna, Normamatov Xayriddin Mengniyevich</b>	
Raqamli iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanishga ta'siri: o'zbekiston misolida.....	92
<b>Saydali Murodullayev</b>	
O'zbekiston universitetlarini barqaror rivojlantirish bo'yicha xalqaro dasturlar va hamkorlik.....	98
<b>Berdiyeva Gulandon Sa'dullayevna</b>	
Образование в цифровую эпоху: возможности модели «перевернутый класс».....	101
<b>Мирзаев Сунмас Амирович</b>	
Pedagogik mahoratni oshirishda sun'iy intellektni texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonini takomillashtiradigan platforma ishlab chiqish.....	105
<b>Salomov Shokirjon Jalilovich, Normamatov Xayriddin Mengniyevich</b>	
Algorithms and software for automatic spelling and grammatical editing of uzbek words.....	114
<b>Daminov Sunatullo Furqat ugli, Eshkarayeva Narkhol G'uzarovna, Boymurodov Farrukh Farkhod ugli</b>	
Innovatsion ta'lim muhitini yaratish orqali ta'lim sifatini oshirish.....	120
<b>Mirzayeva Nilufar Fozilovna</b>	
Kompyuter fanini o'quvchilarning loyihalarni o'qitish jarayonida soft ko'naklarni o'rnatish.....	124
<b>Boboyev Shavkat To'rayevich, Normamatov Xayriddin Mengniyevich</b>	



Kompyuter arxitekturasini o'rganishni takomillashtirishda mobil o'yinli metod dasturlaridan foydalanish.....	135
<b>Muxammadiyeva Nargiza Boxodir qizi, Normamatov Xayriddin Mengniyevich</b>	
Yosh dasturchilarning skatch dasturlash tili ko'nikmalariga elektron ta'lim platformasidan foydalanish bo'yicha dasturlash ko'nikmalariga ta'siri va dasturlashni o'rgatishga munosabat.....	143
<b>Turdiyeva Umida Elmirzayevna, Normamatov Xayriddin Mengniyevich</b>	
Soliqlarning mahalliy moliyaviy barqarorlikdagi ahamiyati.....	153
<b>Salomov Ilhom Rashidovich</b>	
Mahalliy budjetlarning shakllanishi va ularning daromad manbalari.....	157
<b>Salomov Ilhom Rashidovich, Z.I.Ro'ziev</b>	



# MAHALLIY BUDJETLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING DAROMAD MANBALARI

Salomov Ilhom Rashidovich

Osiyo texnologiyalar universiteti 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar:

Z.I.Ro'ziev

iqtisodiyot fanlari nomzodi, dosent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mahalliy budjetlarning shakllanishi, ularning asosiy daromad manbalari, tarkibiy tuzilishi va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan fiskal islohotlar doirasida rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari mahalliy moliya tizimini mustahkamlash uchun soliqqa tortish bazasini kengaytirish, nodavlat tushumlarni oshirish va fiskal rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, budjet tushumlarini prognozlashni takomillashtirish va davlat mulkidan tushumlarni oshirish hududlar moliyaviy mustaqilligini ta'minlashning muhim yo'nalishlari sifatida taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalliy budjet, daromad manbalari, fiskal desentralizatsiya, soliqqa tortish bazasi, moliyaviy mustaqillik.

**Abstract:** This article analyzes the formation of local budgets, their main sources of revenue, structural composition, and development directions within the framework of fiscal reforms implemented in Uzbekistan. The research results indicate the importance of expanding the tax base, increasing non-tax revenues, and improving fiscal incentive mechanisms to strengthen the local financial system. Additionally, budget revenue forecasting and increasing returns from state property are presented as key areas for ensuring regional financial independence.

**Key words:** local budget, revenue sources, fiscal decentralization, tax base, financial independence.

**Аннотация:** В статье рассмотрены формирование местных бюджетов, их основные источники доходов, структура, а также направления развития в рамках проводимых в Узбекистане фискальных реформ. Результаты исследования показывают важность расширения налоговой базы, увеличения неналоговых поступлений и совершенствования механизмов фискального стимулирования для укрепления местной финансовой системы. Кроме того, прогнозирование доходов бюджета и увеличение поступлений от государственного имущества представлены как ключевые направления обеспечения финансовой независимости регионов.

**Ключевые слова:** местный бюджет, источники доходов, фискальная децентрализация, налоговая база, финансовая независимость.

## KIRISH

Mahalliy budjetlar davlat moliya tizimining ajralmas qismi bo'lib, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, aholi farovonligini oshirish va davlat boshqaruvi samaradorligini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ular orqali mahalliy darajadagi davlat funksiyalarini moliyalashtirish, xizmatlar ko'rsatish, infratuzilmani rivojlantirish va barqaror budjet siyosatini yuritish vazifalari amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, mahalliy budjetlarning shakllanish mexanizmlarini, ularning asosiy daromad manbalarini, soliqlar va nodavlat tushumlar tarkibini o'rganish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zero, mahalliy budjetlarning mustahkam daromad bazasiga ega bo'lishi, ulardan oqilona foydalanish imkoniyati, davlat moliyasining umumiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan fiskal markazlashuvni kamaytirish, moliyaviy mustaqillikni oshirish va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish bo'yicha islohotlar sharoitida, mahalliy budjetlar daromad bazasini



kengaytirish masalasi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ushbu maqolada mahalliy budjetlarning shakllanish tamoyillari, ularning asosiy moliyaviy manbalari, shuningdek, mavjud tizimning samaradorligini oshirish yo'llari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy budjetlar shakllanishining nazariy asoslari va ularning daromad manbalarini o'rganishda G'ulomov tomonidan mahalliy moliya tizimining rivojlanish tamoyillari, uning tarkibiy tuzilishi va fiskal barqarorlikka ta'siri atroflicha yoritilgan. Muallif o'z tadqiqotida mahalliy budjetlar mustaqilligi darajasi va davlatning moliyaviy resurslarini qayta taqsimlashdagi roli o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini ta'kidlagan. Sobirov o'z ishida mahalliy daromadlar bazasini shakllantirishda soliqlar va majburiy to'lovlarning o'rni, ularni hududlar iqtisodiy salohiyatiga moslashtirish yo'llarini tahlil qilgan. Shuningdek, Karimov mahalliy budjetlarni shakllantirishda budjetlararo transfertlar tizimi, uning samaradorligi va moliyaviy intizomni oshirishga ta'sirini o'rgangan.

Xorijiy adabiyotlarda, xususan Bird va Vaillancourt tahlillarida fiskal federalizm nazariyasiga asoslanib, mahalliy budjetlar shakllanishining optimal modeli, ularning o'z daromad manbalarini kengaytirish va davlat transferlariga qaramlikni kamaytirish usullari yoritilgan. Litvack, Ahmad va Bird esa rivojlanayotgan mamlakatlarda mahalliy budjet daromadlari tuzilishini tahlil qilib, soliqlarning differensiallashgan stavkalari, xizmat haqlari, davlat mulkidan tushumlar va grantlarning o'zaro muvofiqlashtirilgan tizimi bo'lishini samarali moliyaviy boshqaruv sharti sifatida ko'rsatgan. O'zbekistonda esa Qudratov mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish yo'llarini iqtisodiy o'sishning hududiy farqlarini hisobga olgan holda ishlab chiqqan bo'lib, u budjetlararo tenglashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar bergan.

Jahon banki ham o'z hisobotlarida mahalliy moliya boshqaruvida budjet tushumlarini shakllantirish, ularni barqarorlashtirish va mustaqillik darajasini oshirish muammolarini atroflicha tahlil qilib, fiskal siyosatni desentralizatsiya qilishning afzalliklarini ko'rsatgan. Masalan, World Bank Group hisobotida O'zbekistonda mahalliy daromadlarni oshirish uchun ko'chmas mulk solig'i bazasini kengaytirish, kichik biznes soliqlarini takomillashtirish va nodavlat tushumlar salmog'ini oshirish tavsiya etilgan.

Umuman olganda, mavjud tadqiqotlar mahalliy budjetlarning shakllanishida soliqlar, bojxona tushumlari, davlat mulkidan tushumlar va transfertlar asosiy manbalar sifatida xizmat qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ularni boshqarishda fiskal barqarorlik, moliyaviy intizom, mustaqillik va rag'batlantirish mexanizmlarini uyg'unlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada mahalliy budjetlarning shakllanishini tahlil qilish uchun normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar hamda taqqoslama tahlil usulidan foydalanildi. Respublikadagi turli hududlar bo'yicha budjet daromadlarining manbalari tahlil qilinib, ularning xususiyatlari o'rganildi. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarning mahalliy moliya tizimi bilan taqqoslama tahlillar olib borildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy budjetlar davlat moliya tizimida muhim o'rin egallaydi. Ular orqali hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni moliyalashtirish, aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish, infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, ichimlik suvi ta'minoti, obodonlashtirish kabi asosiy yo'nalishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Mahalliy budjetlarning shakllanishi ko'p jihatdan mamlakatning fiskal tizimi, moliya siyosati, soliqqa tortish bazasi, iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda budjetlararo munosabatlar tizimiga bog'liqdir. O'zbekistonda ushbu tizim so'nggi yillarda izchil rivojlantirilmoqda. Xususan, fiskal markazlashuvni pasaytirish, mahalliy budjetlarning mustaqilligini oshirish, ularni o'z daromad manbalari hisobidan moliyalashtirish ulushini ko'paytirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Amaldagi tartibga ko'ra, mahalliy budjetlarning asosiy daromad manbalari quyidagilardan iborat: hududiy soliqlar (yer solig'i, mol-mulk solig'i), ayrim umumdavlat soliqlaridan mahalliy budjetga qoldiriladigan ulush, davlat bojlari, to'lovlar, jarimalar, nodavlat tushumlar, davlat mulkidan tushumlar, shuningdek, budjetlararo transfertlar. Ularning ichida eng muhimini yer va mol-mulk solig'i tashkil etadi. Chunki bu ikki soliq mahalliy hukumatlarga bevosita tushadi, ularning fiskal mustaqilligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, O'zbekistonda umumdavlat soliqlaridan tushumlar ham tegishli ulushda mahalliy budjetlarda qoldiriladi. Masalan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumining bir qismi, ayrim hollarda qo'shilgan qiymat solig'i tushumlari ham hududiy moliya organlari tasarrufiga o'tkaziladi (1-jadval).



1-jadval. Mahalliy budjetlar daromad manbalari

Tuman mahalliy budjeti	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari
<p>Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i</p> <p>Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i</p> <p>Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan to'lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i</p> <p>Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan soliq mustasno</p> <p>Qurilish materiallari bo'yicha er qari'dan foydalanilganlik uchun soliq, bundan tsement xom ashyosi va tsement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno</p>	<p>Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i</p> <p>Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i</p> <p>Elektr stantsiyalari tomonidan suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq</p> <p>Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasi qilinadigan aksiz solig'i</p> <p>Aylanmadan soliq</p> <p>Davlat bojlari (patent va litsenziya berganlik uchun bojlardan tashqari)</p> <p>Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar</p> <p>Ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig'imlar</p> <p>Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona yig'imlaridan tashqari)</p> <p>Avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tkazish chog'ida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to'lanadigan yig'imlar</p> <p>Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari bo'yicha ajratmalar va dividendlar</p> <p>Davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiy lashtirishdan tushadigan daromadlar</p> <p>Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar</p>

Ushbu jadval mahalliy budjetlar daromad manbalarini hududlar kesimida taqqoslab beradi. Tuman budjetlari asosan jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar va suv, qurilish resurslaridan olinadigan soliqlarga tayangan. Viloyatlar, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston esa yuridik shaxslar soliqlari, aksizlar, bojxona tushumlari, litsenziya va patent bojlari, davlat mulkidan tushumlar, jarimalar kabi ko'p qirrali manbalar hisobidan shakllanadi. Bu esa yuqori darajadagi budjetlarning diversifikatsiyalangan va barqaror tushum bazasiga egaligini ko'rsatadi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab tuman va shahar budjetlari hali ham markaziy budjet subsidiya va transfertlariga bog'liq holda shakllanmoqda. Bu holatning asosiy sabablari qatorida hududlar iqtisodiy salohiyatining turlicha darajada bo'lishi, soliqqa tortish bazasi yetarli emasligi, nodavlat tushumlarni oshirish mexanizmlarining zaifligi va budjet tushumlarini prognozlashning aniq algoritmlar asosida olib borilmasligi qayd etiladi. Masalan, iqtisodiyoti nisbatan sust rivojlangan tumanlarda mol-mulk solig'i bazasi juda tor, tadbirkorlik faoliyati hajmi past bo'lgani uchun ham mahalliy daromadlar cheklangan bo'ladi. Shu sababli ularning shakllanishida davlat transfertlari yetakchi o'rin tutadi.

Bunga qaramay, so'nggi yillarda budjet tushumlarini oshirish, ayniqsa o'z manbalarini ko'paytirish bo'yicha ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Birinchidan, soliqqa tortish bazasi kengaytirilmoqda. Masalan, ko'chmas mulklarni kadastr ro'yxatiga olish va soliq bazasini aniq belgilash orqali mulk solig'i tushumlari oshirildi. Ikkinchidan, elektron tizimlar joriy etilgani sababli to'lov intizomi yaxshilanmoqda, soliq tushumlarini yig'ish samaradorligi oshmoqda. Uchinchidan, davlat mulkidan tushumlarni ko'paytirish uchun ijara faoliyati va davlat aktivlaridan foydalanish mexanizmlari takomillashtirildi. Bu esa hududiy moliya boshqarmalariga qo'shimcha mablag' manbai yaratdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, budjet tushumlarining tarkibi va hajmi hududlarda iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga bevosita bog'liq. Ishlab chiqarish salohiyati yuqori bo'lgan sanoatlashgan viloyatlarda daromad tushumlari ko'proq bo'ladi. Masalan, Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlarida mahalliy budjet daromadlari boshqa hududlarga qaraganda sezilarli yuqori. Bu ularda yirik ishlab chiqarish korxonalari, rivojlangan servis tarmoqlari mavjudligi, mol-mulk va yer solig'i tushumlari hajmining kengligi bilan izohlanadi. Bunday farqlar budjetlararo tenglashtirish mexanizmlarini samarali yuritishni, ya'ni kamroq rivojlangan hududlarga transfertlar ajratish orqali ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

Tan olish kerakki, mahalliy budjetlarning shakllanishi va ularning o'z manbalariga tayanish darajasi ko'plab davlatlarda ham dolzarb muammo bo'lib kelgan. Masalan, Bird va Vaillancourt tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, rivojlanayotgan mamlakatlarda mahalliy darajadagi moliyaviy mustaqillikning pastligi, soliqqa tortish bazasining torligi va transferlarga yuqori bog'liqlik moliyaviy barqarorlikka tahdid soluvchi omillar sirasiga kiradi. Shu sababli O'zbekistonda ham fiskal desentralizatsiya yo'nalishidagi islohotlarni izchil davom ettirish, mahalliy daromadlar bazasini mustahkamlash orqali ularning mustaqilligini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.



Bu borada quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash tizimini takomillashtirish, soliq stavkalarini hududlar iqtisodiy imkoniyatlariga moslashtirish. Ikkinchidan, nodavlat tushumlar manbalarini ko'paytirish, jumladan, davlat mulkini ijara asosida samarali boshqarish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa notaxminiy tushumlar ulushini oshirish. Uchinchidan, hududlarda kichik biznesni rivojlantirish, shu orqali yangi soliq to'lovchilarning paydo bo'lishini rag'batlantirish. To'rtinchidan, davlat transferlarini asosan kam ta'minlangan va iqtisodiy salohiyati sust hududlarga yo'naltirish, rivojlangan hududlarga esa ko'proq o'z manbalariga tayanish vazifasini yuklash.

Bundan tashqari, mahalliy budjetlarni shakllantirishda prognozlash mexanizmlarini takomillashtirish ham dolzarbdir. Bu borada Qudratov tadqiqotlarida budjet tushumlarini prognozlashda kompleks yondashuvlar, ya'ni demografik omillar, iqtisodiy o'sish sur'atlari, soliqqa tortish bazasidagi o'zgarishlar, hududiy investitsiya loyihalarini inobatga olish taklif etiladi. Ushbu yondashuv budjet rejalarini yanada aniqroq tuzish va resurslarni oqilona taqsimlash imkonini beradi.

Shuningdek, jahon tajribasida keng qo'llanilayotgan fiskal rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish ham muhim. Bu usulga ko'ra, mahalliy hokimiyatlar tomonidan tushumlarni oshirish bo'yicha tashabbuslar rag'batlantiriladi. Masalan, tushum oshirilgan qismi to'liq yoki qisman mahalliy budjet ixtiyorida qoldiriladi. Natijada mahalliy boshqaruv organlari moliyaviy mustaqillikka intiladi, ular budjetni to'ldirish manbalarini faol izlay boshlaydi. Ushbu mexanizm Budjet kodeksi amaliyotida belgilab berilgan bo'lsa-da, uning to'liq joriy etilishi hali oldinda turibdi.

Yana bir muhim jihat – mahalliy budjetlar xarajat qismining shakllanishi ham to'g'ridan-to'g'ri daromad manbalari bilan bog'liqdir. Agar budjet tushumlari yetarli bo'lsa, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalarini moliyalashtirish imkoniyati ortadi. Aksincha, tushumlar kam bo'lsa, xarajatlar ham cheklangan bo'ladi. Bu esa aholiga xizmat ko'rsatish sifati, infratuzilma loyihalari amalga oshirilishi va jamoat manfaatlari ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda mahalliy budjetlarning shakllanishi sohasida ijobiy tendensiyalar mavjud. Xususan, 2020-yildan boshlab mahalliy budjetlar mustaqilligi oshib bormoqda, ularning o'z tushumlari ulushi ko'paymoqda, moliya boshqaruviga raqamli tizimlar joriy etilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda hali ham markaziy transfertlarga yuqori bog'liqlik kuzatilmoqda. Bu holatni bartaraf etish uchun mahalliy daromadlar bazasini mustahkamlash, nodavlat tushumlar ulushini oshirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, fiskal rag'batlantirish mexanizmlarini to'liq joriy etish lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy budjetlar davlat moliya tizimining muhim bo'g'ini sifatida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, aholiga sifatli davlat xizmatlarini ko'rsatishda va infratuzilmani modernizatsiya qilishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy budjetlarning daromad manbalari tarkibini diversifikatsiya qilish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, nodavlat tushumlar ulushini oshirish va davlat mulkidan tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, budjetlararo transfertlarga yuqori bog'liqlik, iqtisodiy salohiyatlar o'rtasidagi nomutanosiblik va mahalliy moliya boshqaruvi samaradorligini oshirish masalalari o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Kelgusida ushbu sohani rivojlantirish uchun fiskal desentralizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, mahalliy soliqlarni hisoblash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, davlat aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirish va kichik biznes rivojini rag'batlantirish orqali soliqqa tortish bazasini kengaytirish lozim. Shu bilan birga, mahalliy budjet tushumlarini prognozlashning ilmiy asoslangan metodologiyalarini ishlab chiqish, fiskal rag'batlantirish mexanizmlarini to'liq joriy etish hamda moliya boshqaruvida zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng qo'llash budjetlarning barqarorligini mustahkamlashga, ularning moliyaviy mustaqilligini oshirishga va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamanazarov A.B. Mahalliy budjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish masalalari: i.f.n. ... avtoreferat. – T.: BMA. 2002. – 22 b.
2. Ro'ziyev Z.I. Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish: i.f.n. avtoreferat. – T.: BMA. 2011. – 22 b.
3. Xayriddinov A.B. Mahalliy budjetlar daromadlar bazalarining barqarorligini ta'minlash yo'llari: i.f.n. avtoreferat. – T.: BMA. 2011. – 22 b.
4. Qiyosov Sh. Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish muammolari//Moliya jurnali. –T.: 2014. -№1. – B. 36-40.
5. E. Qudratov. Mahalliy budjetlarni moliyalashtirishning innovatsion yo'nalishlari. – T.: Iqtisodiyot, 2021.-198 b.
6. R. Bird, F. Vaillancourt. Fiscal Decentralization in Developing Countries. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.-320 p.



7. J. Litvack, J. Ahmad, R. Bird. Rethinking Decentralization in Developing Countries. – Washington D.C.: World Bank, 1998.-250 p.
8. M. Musgrave, P. Musgrave. Public Finance in Theory and Practice. – New York: McGraw-Hill, 1989.-627 p.
9. World Bank Group. Uzbekistan – Enhancing Subnational Budget Revenues. Report. – Washington D.C.: World Bank, 2019.-85 p.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 6-maxsus son

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>